

Ruziyev Bobosher Usarovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi

YOSHLAR ONGI VA TAFAKKURIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH DAVR TALABI

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyoda davom etayotgan axborot xurujlari, buguni dunyodagi qurol yarog' biznesi va mafkuraviy tahdidlar hamda ularning jamiyat va xususan yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sirlari, shuningdek demokratiya va inson huquqlari niqobi ostida tarqatilayotgan zararli mafkuralarga qarshi kurash haqida fikr yuritilgan. O'zbekiston yoshlarining ongi va tafakkurida mafkuraviy tahdidlarga qarshi chinakkam mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish dolzarb masala ekanligi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: axborot xurujlari, demokratiya, qadriyatlar, mafkuraviy maydon, mafkuraviy kurashlar, geosiyosat, O'zbekiston yoshlari, mafkuraviy immunitet.

Kirish

Ma'lumki, XX asr oxirida yer yuziing katta bir qismida o'zining hukmron mafkurasini targ'ib qilib yashaagan sobiq ittifoq parchalanib ketdi. Bu esa dunyo siyosiy xaritasida yangi mustaqil davlatlarningsh paydo bo'lishi bilan birga ularni o'z ta'sirida tutishga harakat qilgan turli tomonlar va umuman yer yuzida turli mafkuraga ega bo'lgan kuchlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu holat bugungi globallashgan davrda yana o'ziga xos ravishda namoyon bo'lib turibdi. Dunyoda yana barqarorlik izidan chiqib bormoqda. Bu holat esa har bir mamlakat va uning aholisini tashvishga solishi aniq albatta. Shu tufayli xalqaro maydonda bo'layotgan kelishmovchiliklar va turli kuchlar o'z manfaati yo'lida kuchli axborot targ'iboti va mafkuraviy hujumlardan ustalik bilan foydalanmoqda. Shunday ekan, aholisining ko'proq qismini yoshlardan iborat bo'lgan O'zbekistonga ham bu mafkuraviy ta'sirlar axborot hujumlari katta xavf hisoblanadi. Shuning uchun ham, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin"¹ deb ta'kidlashi ayni haqiqatdir. Chunki bugun dunyoda insoniyat turli kuchlar orasida, turli axborotlar qurshovida yashamoqda. Siyosiy jihatdan olganda go'yoki dunyo davlatlari yana Sobiq ittifoq davridagidek tomonlarga ajralayotganga o'xshaydi, ammo bugun dunyoda madaniyatlar va mafkuralar globallashib bormoqda. Bir-biriga qarama-qarshi tomonlar axborotdan kuchli qurol sifatida foydalanmoqda. Shu tufayli ham yurtimiz yoshlari, ularning ongini zararli mafkuralardan himoya qilish doimo dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi.

Natija va muhokamalar

Bir qancha olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida mavzuning turli xil jihatlari o'ziga xos tarzda o'rganilgan. Mavzuning qisman farqli jihatlari, xususan internet tarmog'i va uning yoshlar ruhiyatiga va ongiga doir salbiy ta'sirlariga doir tadqiqotlar ko'plab mdh va xorijiy mamlakatlar tadqiqotchilarining izlanishlarida, maqolalarida yoritilib kelinmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. Т. "Ўзбекистон" 2017 й.486 бет

Axborotlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlashning uslubiy va ijtimoiy jihatlariga doir O'zbekistonda M.N.Abdullayeva, B.R.Karimov, K.J.Tulenova, Z.D.Davronov, E.M.Izzetova, S.Otamuratov, I.Saifnazarov, O'.M.Abilov, A.M.Abduvohidov, M.A.Yahyo kabi olimlarning monografiya va maqolalarini ko'rish mumkin. Shuningdek globallashuv sharoitida ma'naviyat masalalari, yoshlar ma'naviyati, ma'naviy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlari T.Mahmudov, J.Tulenov, E.Yusupov S.Shermuhamedov, A.Jalolov kabi faylasuf olimlar tomonidan o'rganilganligini etirof etish lozim. Shu bilan birga izlanishlar va natijalarni taqqoslab, hozirgi davr nuqtai nazaridan mavzuni o'rganish mavzuning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda, mustaqillikning dastlabki yillaridan yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sohalaridagi manfaatlarini himoya etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi. Yigit-qizlarning ongi-tafakkurini oshirish, siyosiy madaniyati hamda ma'naviy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga etibor qaratilgan edi. Buni, O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z nutqida shunday ta'kidlagan edi: «Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur»² Shuning uchun bu borada tarix va ma'naviyatni, milliy qadriyatlarni tiklashga davlat siyosati darajasida qaraldi. Yurtimizning boy ma'naviy merosi, qadriyatlari qayta tiklandi, tarixi xolisona yozildi. Shu bilan birga aytish mumkinki, dunyoda mafkuraviy hujumlar umuman to'xtagani yo'q va dunyoni mafkuraviy bo'lib olishga intilishlar yana kuchayib bormoqda.

Dunyoda o'z ta'sirini o'tkazishga intilayotgan davlatlarda qurollanishga bo'lgan intilish kuchayib bormoqda. Qurollarning yangi turlari yaratilmoqda. Qurol-yarog' savdosi orqali daromad ko'rish yanada rivojlanib bormoqda. Yagi qurollarni sinash va sotish uchun yangi xaridorlar, ya'ni yangi urush maydonlari yaratilmoqda. Yangi urush maydonlarini yaratishda turli geosiyosiy o'yinlar, mafkuraviy hujumlar yana rivojlantirilmoqda.

Chunki, oxirgi paytlarda axborot xurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol – axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informasion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u daydi o'q singari insonni jismonan yuq qila olmas-da, uning qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari xar qanday ommaviy qirg'in qurolnikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o'z manfaatlariga zid xarakter qilishga undaydi va demak, insonni boshqarish, uning ustidan xukmronlik qilish imkonini beradi.

Ya'ni unda yot mafkurani shakllantiradi .

Mafkuraviy taxdid yuzaki qaraganda birdan va bevosita kuzga tashlanmasligi mumkin. Chunki, mafkura inson ongi, tafakkurida shakllanadi. Shunga binoan, ongni, tafakkurni taxlikaga soluvchi xar qanday taxdidlarning oldini olish, ularga yul quymaslik zarur.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab, jahonning ko'plab mamlakatlari globallashuvning iqtisodiy va texnikaviy yutuqlaridan foydalanib yashamoqda. Natijada mamlakatlar o'rtasidagi o'tib bo'lmas chegaralar yo'qolib, odamlar barcha davrlarga nisbatan chuqurroq, bevosita va ko'p tomonlama aloqalarga kirishmoqda. Ayni paytda bu holat salbiy hodisalarga sabab bo'lmoqda,

² Каримов И.А. Асарлар. Т.8. 494-бет.

chunonchi, uzoq masofalar bilan qilingan aloqalar yaqinlari bilan munosabatni uzoqlashtirmoqda, o'z nasl-nasabidan begonalashuviga sabab bo'lmoqda. Dunyo, odamlar va qadriyatlar o'z qadr-qimmatini yo'qotishi bilan qavm-qarindoshlikdan, milliy madaniyati, tarixidan uzoqlashib ketmoqda. Oqibatda, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning insonlar ma'naviyatiga ta'sir etuvchi mafkuralashgan holdagi globallashuvi paydo bo'lmoqda.

Bugun Markaziy Osiyo mintaqasida turli manfaatlar va mafkuralarning ayovsiz to'qnashuvi kuzatilmoqda.

Bir tomonda jamiyat ongi, ma'naviyatiga taxdid solishi mumkin bulgan go'yoki o'rta asrlardagidek davlatchilikni tiklashni uz oldiga maqsad qilib quygan ekstremistik guruhlar hamon yashab kelmoqda .

Shu bilan bir qatorda bu hududni o'z geosiyosiy manfaatlariga moslash maqsadidagi kuchli davlatlar va g'arazli kuchlar demokratiya va inson huquqlarini himoya qilish niqobi ostida keng ko'lamdagi mafkuraviy tazyiqlarni uyushtirmoqda. Shu o'rinda AQShning tanikli tadkikotchilaridan biri Z.Bzejinskiyning "ushbu mintakada ustunlikni kim qo'lga kiritisa, shubhasiz geosiyosiy va iktisodiy yutukni qo'lga kiritadi",³ degan fikrini eslash o'rinlidir .

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy hamlalar ta'sirini doimiy ravishda sezib yashaydi. Mana shunday bir vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlarga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishi amri mahol"⁴, deb ta'kidlagani bejiz emas.

Masalan, g'arbdan kirib kelayotgan «ommaviy madaniyat» yoshlarni, milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga xilof bo'lgan axloqsizlik, zo'ravonlik, ilmsizlikka undovchi targ'ibot materiallarini olib kiriyapti.

Bu kabi zararli mafkuraviy hujumlardan himoyalalanish nafaqat O'zbekistonning, Markaziy osiyoningva umuman dunyo hamajamiyatining muammosiga aylab bormoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 2022 yil noyabrdan "An'anaviy rus ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlash bo'yicha davlat siyosati asoslarini tasdiqlash"⁵ ga doir Prezidentning alohida farmoni chiqqan edi.

Bunday holatlar avvallari internet klublarida edi. Bugun turli internet saytlarda, telefonlardagi telegramm, instagramm, feysbuk va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali internetdan tarqalmoqda .

Milliy mentalitetimizga zid bo'lgan bunday odatlar esa yoshlarning ma'naviy tubanlashishiga, yengiltak dunyoqarash shakllanishiga olib kelmoqda.

Shuning uchun ham yoshlarning ongida sog'lom mafkurani shakllantirish doimo dolzarbligicha qoladi. Buni o'z vaqtida yaxshi bilgan O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning "mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridan ham xavfliroq"⁶ deb bergan ta'riflarini bugun insoniyat o'z ko'zi bilan ko'rib guvoh bo'lmoqda.

Oqibatda «ommaviy madaniyat» domiga tushib qolgan yoshlar o'zlari ham bilmagan holda, o'qituvchi va o'qishga, ota-onaga, keksa va nogironlarga, nochor kishilarga nisbatan bexurmat,

² Бжезинский З. Великая шахматная доска.- Москва, 1999.- С.168.

⁴ Каримов И.А. Юсак маънавият — энгилмас куч. Т., "Маънавият", 2008.-Б.113.

⁵ <http://www.kremlin.ru/acts/bank/48502>

⁶ Миллий истиқлол ғояси асосий тушунча ва тамойиллар. Т. "Ўзбекистон". 2000 й. 3-бет

bepisand, loqayd va bilimsiz shaxsga aylanib qolyaptilar. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasi ularning ongi, tafakkuri hech qachon bo'sh qolmasligi kerak.

Buni ulug' o'zbek ma'rifatparvarlaridan mashhur Abdulla Avloniy "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir"⁷ deb ta'kidlagan gaplari bugun ham o'zining muhim ahamiyatini ko'rsatmoqda.

Biz bugun fuqarolarning erkinligi va mustaqil tafakkuriga asoslangan jamiyat qurayotgan ekanmiz, yoshlarimizga jamiyatda mutlaq erkinlik bulmasligini, mustaqil fikrlash mas'uliyatsizlik va burchni unutish mumkin emasligini tushuntirib borishimiz zarur. Fuqaro erkinligi yangi ijtimoiy tuzum tomonidan kafolatlansa-da, fuqarolarning jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan mutlaqo erkin xatti-xarakatlarining kafolati emas. «Men mutlaqo erkin fuqaroman, mustaqil tafakkurli insonman, bilganimni qilaman» qabilida yashash tarzini uzgartirish insonning ijtimoiy va milliy mohiyatiga zid aqidadir. Bunday holatlardan hamma ogoh bo'lishi kerak, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganidek, «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi».⁸

Hozirda dunyo globallashuv jarayonlariga tortilgan. Bu esa texnika sohasida o'sishga, insonlarga qulaylik yaratishga olib kelmoqda.

Globalashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Masalan mashhur iqtisodchi J.Attalining fikricha, hozirgi vaktida tarakkiyotning uchinchi davri - kadriyatlarining universal ekvivalenti bulgan "pul davri" boshlangan. Uning nazarida, jaxonda yagona liberal-demokratik mafkura, bozor tizimi va informasion texnologiyalarning rivojlanishi tufayli dunyoda yangi manzara vujudga keladi...⁹ Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning barchasi yosh avlod ongida mafkuraviy immuninitetni hych qachon susaytirmaslikni davr nuqtai nazaridan talab qilmoqda.

Hozirgi vaqtda yurtimiz, xalqimiz oldida turgan yuksak maqsadlarga erishish uchun mamlakatimizda yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun barcha imkoniyatlar yetarli. O'z kelajagini o'ylagan har qanday davlat, avvalo, yoshlar tarbiyasiga katta e'tibor beradi. Shuni aytish kerakki, yurtimizda har bir insonning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan davlat xarajatlari yildan-yilga oshirilib, bu masala keng jamoatchilikning asosiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

⁷ Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ.Т."Ўзбекистон миллий энциклопедияси" нашриёти."2004 й.7-бет

⁸ Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. Т., "Маънавият", 2008.-Б.11

⁹ Жалилов. А, Туленова Г. Геосиёсат асослари. Ўқув қўлланма. Т.2007 й. 56-б

Yurtimizda ham yoshlarga texnikaning eng so'ngi yutuqlaridan xabardor qilish bilan bir qatorda, yangidan-yangi imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratib berish yuzasidan samarali ishlar olib borilmoqda.

Har bir soxada o'zgarishlar, yutuq va muvaffaqiyatlar kun sayin ko'payib, kengayib borayotgan ekan, mafkura soxasida endi ish qolmaydi, xamma narsa uylaganimizday davom etib boraveradi, deyish tugrimi? Albatta, yuq. Negaki, dunyoda yoshlar ongi va qalbini egallashga» urinishlar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, yoshlarimiz tafakkuri, dunyoqarashini shakllantirish masalalariga befarq bulmaslik kerakligini nazarda tutmay iloj yuq.

Ya'ni, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Mafkuraviy immunitet shaxs tomonidan Vatan, millat uchun ko'ngilli, g'oyaviy asoslanib amalga oshiriladigan kundalik ishlarda namoyon bo'ladi. Bu faollik milliy birlik, ma'naviy yuksalishga xalaqit berayotgan sifatlar, yot qarashlar, milliy xavfsizligimizga ichki va tashqi taxdidlarga ochiq va mardona qarshi turishni xam uz ichiga oladi. Milliy mafkuraviy immunitet har bir yigit-qiz, fuqarodagi mustaqillikning siyosiy moxiyati, isloxotlar yutuqlari va muammolari, ichki va tashqi siyosatga doir chuqur bilimlarga tayanadi .

Shunday ekan, kelajagi buyuk O'zbekistonni, ozod, obod Vatanni yaratish va umuman, islohotlarning taqdiri oxir-oqibatda bugun shakllanayotgan avlodning dunyoqarashiga, ijtimoiy mo'ljallariga, zamonaviy ilm-fan va kasblarni egallashiga, amaliy tashkilotchiligiga bevosita bog'liq.

Adabiyotlar va manbalar :

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. T. "O'zbekiston" 2017 y.486 bet
2. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T. 2008.y
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barkaror tarakkiyot yo'lida. 6-jild. T.1998.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiklol, iktisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T. 1996.
5. Jalilov. A, Tulenova G. Geosiyosat asoslari. O'quv qo'llanma. T.2007 y.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.T."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti."2004
7. Бжезинский З. Великая шахматная доска.- Москва, 1999.г
8. www.kremlin.ru